“Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasini tashkil etish

G`aniyeva Vazira Yusufovna
Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi
Kenjayeva Manzura Ilxomovna
Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya: Ekologiya - biologiya fanlari qatoridagi mustaqil fan hisoblanadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo‘lib 1866-yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasini tashkil etish to`g`risida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar va iboralar: Birgalikdagi faoliyat, faol ta’sir etish, tashabbus, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, faoliyat markazlari, ta’lim jarayonlari.

Аннотация:Экология является самостоятельной наукой среди биологических наук. Понятие экология впервые было введено в науку в 1866 г. немецким биологом Э. Геккелем. На основе государственной образовательной программы «Илк кадам» рассматривается организация экологического воспитания детей дошкольного возраста в центрах деятельности.

Ключевые слова и фразы: Совместная деятельность, активное влияние, инициатива, государственная образовательная программа «Илк кадам», центры развития,образовательные процессы.

Annotation: Ecology is an independent science among biological sciences. The concept of ecology was first introduced into science in 1866 by the German biologist E. Haeckel. On the basis of the state educational program "Ilk Kadam" the organization of ecological education of preschool children in the centers of activity is considered.

Key words and phrases: Joint activity, active influence, initiative, state educational program "Ilk Kadam", development centers, educational processes.

Ekologiya - biologiya fanlari qatoridagi mustaqil fan hisoblanadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo‘lib 1866-yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. O‘rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al- Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy risolalaridan birida bunday deb yozadi: “Bilingki, dunyoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga ham, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar!”, “Dunyoning yoshli ko‘zlari” deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni ko‘zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini nazarda tutgandir? U, eng avvalo, daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishishlari, o‘zaro mehr-muhabbatli bo‘lishlarini nazarda tutgan. 847-yilda Muhammad al-Xorazmiy “Surat al-ard” (Yerning surati) degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit’alar, qutblar, ekvator, gullar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar, o‘rmonlar va ulardagi o‘simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar — Yerning asosiy boyliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada

matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Ekologik tarbiyani asosiy maqsadi shundan iboratki maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘simlik va hayvonlami himoya qilish, hamda ulaming barchasi kishilaming yordamiga, g‘amxo‘rligiga muhtojligi haqidagi tasavvurlarini aniqlash. O‘simlik, hayvonlar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash, hayvonot va o‘simliklar dunyosini ehtiyot qilish zarurligini tushuntirish. Suhbat uchun kerakli materiallar. Tabiat haqidagi, qo‘riqxona haqidagi rasmlar. Suhbatning borishi. Suhbatni quyidagi savollar bilan boshlaeh mumkin: Biz xiyobonni nega sevamiz? O‘rmon, dalani-chi?, daryoni-chi?. O‘simliklaring o‘sishi uchun nimalar kerak? Bolalar o‘rmonda o‘zlarini qanday tutishlari kerak? Biz qushlarga qanday g‘amxo‘rlik qildik? Keyin respublikamizning boshqa yerlaridagi yovoyi hayvonlar, parrandalar va hayvonlami asrash haqida so‘zlab berish, bolalar bilan rasmlar ko‘rish mumkin. Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o‘simlik va hayvoniarga g‘amxo‘rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko‘paytiruvchi kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalami amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati katta.

Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki uni bolalar har kuni ko‘radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o‘simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib boradilar. Natijada o‘simlik va hayvonlar dunyosining rang-barangligi, ularning o‘sishi, rivojlanishi, ular uchun qanday sharoit kerakligi to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalami egallab boradilar. Tarbiyachi bolalarda solishtirish malakasini shakllantiradi. Hayvon va o‘simliklami bir-biri bilan solishtirish orqali ular o‘rtasidagi umumiylik va farqlami, ularga xos belgi va xususiyatlami bilib oladilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini o‘simliklaming chiroyli gullashiga, barglaring shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko‘rinishi va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go‘zalliklarni ko‘zlari bilan ko‘rib, qalblari bilan his etadilar, ularning estetik didi o‘sadi. Bolalar tabiat burchagidagi o‘simlik va hayvonlami tarbiyachi rahbarligida kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida tabiatga ehtiyotkorlik munosabatlari shakllanadi. Ularda tabiatni yanada gullab-yashnashi uchun o‘z hissasini qo‘shish, bundan tashqari qo‘ldan kelgan mehnati bilan bu jarayonda qatnashish xohishini uyg‘otadi.

Ekologik tarbiyani oiladan, bog‘cha yoshi davridan yosh avlodga singdirish kerak. MTTning ta’lim-tarbiya dasturida bolalarga ona-tabiatga muhabbatni, o‘simliklar, hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmasini tarbiyalash, tabiat qo‘ynida o‘zini odobli tutish, o‘simliklami o‘stirish, hayvonlami parvarish qilish, muhofaza qilishga qiziqish uyg‘otish, daraxtlami sindirmaslik, hayvonlami qiynamaslik ko‘nikmalarini tarbiyalash kichik guruhdan boshlab amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga ekologik tarbiya berish quyidagi usullarda olib boriladi.

1. Ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlar ko‘rish, diafilmlar namoyish etish).

2. Amaliy (o‘yin tarzida).

3. Og‘zaki (hikoya, tushuntirib berish, badiiy asarlami o‘qib berish).

Ko‘rgazmali usul - kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o‘simlik, hayvonlar, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish asosida tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg‘ulotda, sayrda, ekskursiyada, tabiat burchaklarida olib boriladi. Uni bolalar

amaliy faoliyat bilan qo‘shib olib borsalar yaxshi natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotida foydalaniladigan diafilmlar MTT ta’lim-tarbiya dasturi asosida ishlab chiqilgan. Diafilm tarbiyachiga dastur mazmunini ma’lum sistema asosida bolalarga qiziqarli qilib yetkazishga yordam beradi. Oynayi jahon orqali beriladigan «U kim, bu nima?» ko‘rsatuvi, radio orqali beriladigan «Ertaklar olamiga sayohat» o‘yin-eshittirishi orqali bolalar u yoki bu o‘lkaning tabiati, hayvonot olami, xalqlarning urf-odati bilan tanishadilar. Axloqiy sifatlari tarbiyalanadi. Ularda namoyish etilgan teleko‘rsatuvlar orqali tabiatda yuz berayotgan jarayonlar, o‘simlik, hayvonlar olami to‘g‘risida to‘laqonli tasavur hosil bo‘ladi.

Amaliy usul - bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiiy materiallar bilan o‘ynaladigan didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun meva-sabzavotlar, daraxt novdalari, xona gullaridan foydalanish mumkin. Bolalarni o‘simliklar bilan tanishtirishda quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin. «O‘simliklami nomiga qarab top», «Bargiga qarab top», «Ta’riflangan o‘simlik yoki mevani top» va. h.k.

Og‘zaki usul - bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachining tushuntirishi, hikoya qilib berishi, xalq maqollaridan, masallaridan foydalanishi, suhbat kabi og‘zaki metodlarning o‘rni kattadir.

Ekologik tarbiya - asosan tabiat haqidagi tasavvurni shakllantirsh orqali tabiat bilan tanishtirish mehnat mashg‘ulotlarida berib boriladi. Bog‘chalarda ekologik talim bo‘yicha olib borilayotgan ishlar birinchi kichik guruhdan boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan davlat talablari shu talablar asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha talim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturning "bolalarni jismoniy rivojlantirish", "bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish", "ma’naviy-madaniy yetuklik" bo‘limlarida o‘z aksini topgan. Dastur bolalarning yoshi, psixologik hamda fiziologik xususiyatlariga mos ravishda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik ta’lim-tarbiya berishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan.Ekologik madaniyat – xalq san’ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san’atni bilish, san’atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi.Ekologik ta’lim – o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o‘quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini to‘g‘ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarning to‘g‘ri yechimini topishga yo‘naltiradi. Ekologik bilim – muayyan ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilarga singdirish, ularning ongiga, xulqiga ta’sir etish, dunyo qarashi va bilish faolligini rivojlantirishdir. U insonni mehnatga, hayotga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Bolalar tabiat burchagida qilgan ishlari bilan ham tabiatga oshno bo‘ldilar. Tabiat burchagining muhim tomoni shundaki, uni bolalar har kuni ko‘radilar.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Назирова, Г. М., and Ф. М. Рахимова. "Методологические основы формирования творческой деятельности будущих педагогов-воспитателей." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 334-339.

4. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya Mixaylovna Burdina. "Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in uzbekistan." International Academic Research Journal Impact Factor 7.4 1.6 (2022): 112-118.

5. Raximova, F. M. "Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 54-57.

6. Mukhammadzhonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Problems of development of creative abilities in preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

7. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Development of pedagogical activites with preschool children in need of inclusive education."Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.

8. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. "Problems with the social attitude of the individual."Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

9. Muxammadjonovna, Raximova Feruzaxon. "Difficulties in organizing the education and upbringing of visually impaired children of preschool age."International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 90-93.

10. Narimanovna, Eshchanova Gulnara, and Ganiyeva Vazira Yusufovna. "SOCIAL ADJUSTMENT OF THE PRESCHOOL CHILD PROCESS ANALYSIS." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

11. Yusufona, Ganieva Vazira. "ACTIVATION OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COGNITIVE THINKING OF PRESCHOOL CHILDREN." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 462-464.

12. Yusufovna, Ganieva Vazira, and Juraeva Sayyora. "BOLADA BILISH KOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH PROFESSIONAL PEDAGOGIK TAYYORGARLIKNING KOMPONENTI SIFATIDA." Ta'lim fidoyilari 19 (2022): 472-480.

13.Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Development of pedagogical activites with preschool children in need of inclusive education." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.

14. Malikovna, Nazirova Guzal, and Muminova Gulasal Bakhodirovna. "EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

15. Nazirova, G. "FORMATION OF A SENSE OF NATIONAL PRIDE AMONG IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN THROUGH ORAL FOLK ART-AS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY." Science and Innovation 1.8 (2022): 2067-2077.

16. Nazirova, G. "МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАСИДА МИЛЛИЙ ҒУРУР ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ–ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА." Science and innovation 1.B8 (2022): 2067-2077.

17. Назирова, Г. М., and Ф. М. Рахимова. "Методологические основы формирования творческой деятельности будущих педагогов-воспитателей." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 334-339.